

Koreys tilini o'rgatish kursi Qabul jarayoni bo'yicha ko'rsatmalar

Gwangju kampusi



서영대학교
SEOYEONG UNIVERSITY

01 O'quv jarayoni jadvali

O'quv semestri	O'tkazilish muddati		Qabul muddati	Har semestr uchun o'quv soatlari
2025 Qish	26.11.2025 ~ 05.02.2026	10 hafta	01.08.2025 ~ 30.09.2025	1,000,000 von (3 oy)
2026 Bahor	16.03.2026 ~ 27.05.2026	10 hafta	11–12 oylar orasida	Jami 160 soat (haftasiga 16 soat, 10 hafta kurs)
2026 Yoz	08.06.2026 ~ 13.08.2026	10 hafta	3–4 oylar orasida	
2026 Kuz	07.09.2026 ~ 17.11.2026	10 hafta	5–6 oylar orasida	
2026 Qish	01.12.2026 ~ 11.02.2027	10 hafta	9–10 oylar orasida	

02 Xarajatlar

bo'lim	ariza to'lovi	o'quv to'lovi	sug'urta to'lovi	Yotoqxona to'lovi
Miqdori	50,000 von	1,046,000 von	65,000 von (6 oy)	810,000 von (6 oy, bir xonada 4 kishi)
Eslatma	Faqat birinchi to'lov, qaytarib berilmaydi	Har semester (3 oy)	6 oydan keyin davlat tibbiy sug'urtasiga majburiy obuna.	Oziq-ovqat bilan ta'minlanmaydi
To'lov hisob raqami	qabul etilgan nomzodlar e'lon qilingandaso'ng tayinlangan hisob raqami e'lon qilinadi.			

* Koreyaga mamlakatiga kirgandan keyin qilingan barcha xarajatlar talaba tomonidan qoplanadi.
 Misol: sug'urta to'lovi(milliy tibbiy sug'urta, xalqaro talabalar sug'urtasi), darslik to'lovlari, chet
 elliklarni ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza to'lovlari va boshqalar.

03 Muvofiqlik talablari

- ☒ Chet elliklar yoki chet ellik koreyslar ariza topshirishlari mumkin.
- ☒ O'rta-maxsus maktab bitiruvchilari yoki shunga tenglashtiriladigan maktab ma'lumotlariga ega bo'lganlar

04 Baholash metodlari

Baholash metodlari	Baholash tafsilotlari	Izohlar
Hujjatlarni tekshirish jarayoni	· Akademik ko'rsatgich · Moliyaviy ko'rsatgich	· O'rta-maxsus maktab yoki shunga tenglashtiriladigan maktabni tugatganligi · Moliyaviy holatni tasdiqlovchi hujjatlar
Suhbat	Suhbatga faqat hujjat asosidagi tekshiruvdan muvaffaqiyatli o'tganlarga taklif qilinadi(birga-bir suhbat, video yoki onlayn qo'ng'iroq va h.k.)	

05 Taqdim etiladigan hujjatlar


No.	Taqdim etiladigan hujjatlar	Izohlar
1	Ariza	Seoyeong Universiteti anketasi to'ldiriladi
2	Pasport nusxasi	Abituriyent va ota-onasining pasporti nusxasi (tegishli hukumat tomonidan berilgan shaxsiy guvohnoma) · Pasportning amal qilish muddati ro'yxatga olingan kundan boshlab bir yil yoki undan ko'proq bo'lishi; · Koreyada avvaldan bo'lganlar uchun chet ellik ro'yxatga olish kartasi nusxasini (old va orqa) qo'shimcha ravishda taqdim etiladi
3	O'rta maktabni tugatganligi (yoki tugatishi kutilayotganligi) to'g'risidagi guvohnoma	Quyidagilardan ixtiyoriy biri: ① Apostil bilan tasdiqlangan hujjatlar (apostilga a'zo mamlakatlar talabari) ② Ariza beruvchining mamlakatida joylashgan Koreya elchixonasi yoki ushbu mamlakatning Koreyada joylashgan elchixonasi tomonidan tasdiqlangan hujjatlarning asl nusxasi *Biroq, xitoylik talabalar Ta'lim vazirligi tomonidan berilgan akademik ma'lumotnomani topshirishlari mumkin *O'rta maktabni tugatishi kutilayotganligi to'g'risidagi guvohnomani taqdim etganlar keyinroq o'qishni tugatganligi to'g'risidagi attestatni topshirishlari shart.
4	Attestat yoki diplomdan ilova	Asl va notarial tasdiqlangan tarjima nusxasi (ingliz yoki koreys tilida)
5	Oilaviy holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar	Ariza beruvchining va uning ota-onasining fuqaroligi va qarindoshligini tasdiqlovchi hujjatlar · Xitoylik arizachilar: Xitoyning uy xo'jaligi reestrining asl nusxasi (ota-onaning qaramog'idanaajralganlik to'g'risidagi guvohnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi) · Xitoydan tashqari boshqa mamlakatlardan kelgan arizachilar: oilaviy holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar talab etiladi.
6	Bank balansi hisoboti	Ariza beruvchi yoki uning ota-onasi nomiga saqlangan jamg'arma hisobvarag'i qoldig'i to'g'risidagi asl hujjat (8 million koreya voniga teng yoki undan ortiq) · Kamida 3 oylik depoziti va pul yechishni shartli to'xtatib turish davri bolgan bank hisobvarag'i. *Hisob balansi hujjatini asosiy standart hujjat sifatida (Koreya Adliya vazirligi yo'riqnomasiga qarang) va kerak bo'lganda qo'shimcha hujjatlarni taqdim eting. - Xitoy : hujjat ariza topshirilgandan keyin 1 oy ichida beriladi va viza olish uchun ariza berish vaqtida qo'shimcha nusxasini taqdim etish talab qilinadi. - Vetnam : Koreyada o'qish xarajatlari uchun mablag'lar depoziti to'g'risidagi guvohnoma (depozit muddati 1 yil, 8 million von yoki undan ortiq)
7	Moliyaviy holatni tasdiqlovchi hujjatlar	Ish joyi, daromad va mol-mulkni tasdiqlovchi hujjat kabi moliyaviy kafolat hujjatlarining notarial tasdiqlangan tarjimasi.
8	Rangli fotosurat	Oq fonli 3,5×4,5 o'lchamdagi uchta pasport o'lchamidagi fotosurat (oxirgi olti oy ichida olingan bo'lishi kerak)

※ Hujjatlarni tekshirish jarayonida qo'shimcha hujjatlar talab qilinishi mumkin.

☒ Xitoy yakuniy maktab darslarida qatnashganligini tasdiqlovchi hujjat (faqat xitoylik diplom va daraja egalari uchun)

Maktab turi		Taqdim etiladigan hujjatlar	Izohlar
Umumiy o'rta-maxsus maktab		Xitoy Ta'lim vazirligi tomonidan boshqariladigan Xitoy Oliy Ta'lim Talabalar Ma'lumotlari (CHSI) tomonidan berilgan akademik sertifikat.	
O'rta yoki kichik kasb-hunar maktablari	Kichiklar kollejlari Kasb-hunar maktablari Kattalar kollejlari	① Onlayn taqdim etilsa i) Mahalliy ta'lim organlari tomonidan berilgan bitiruv sertifikati: Koreyaning Xitoydagi elchixonasi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak (Faqat haqiqiy nusxasi onlayn tarzda tasdiqlanganda qabul qilinadi) ② Oflayn taqdim etilsa i) 'Xitoyning o'rta-maxsus kasb-hunar maktabi ma'lumotlarini tekshirish shaklini topshirish kerak ii) Mahalliy ta'lim organlari tomonidan berilgan bitiruv sertifikati: Koreyaning Xitoydagi elchixonasi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak iii) Maktab tomonidan berilgan attestat/diplom: Prefektura (shahar) ta'lim boshqarmasi yoki qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan yoki sertifikatlangan va Koreyaning Xitoydagi elchixonasi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.	1 should be opted
	Texnikumlar	Xitoy Inson resurslari va ijtimoiy xavfsizlik vazirligining rasmiy veb-saytida onlayn sertifikatlangan bo'lishi kerak (Faqat haqiqiy nusxasi onlayn tarzda tasdiqlanganda qabul qilinadi) va Koreyaning Xitoydagi elchixonasi tomonidan tasdiqlanishi kerak.	

06 Muvofiqlik talablari



07 Foyda va qulayliklar

- ☒ Belgilangan kirish davrida kelganlarni aeroportda kutib olish va kuzatish xizmati ko'rsatiladi.
- ☒ Tanishtiruv dasturlari turli til guruhlari uchun amalga oshiriladi.
- ☒ Koreys madaniyati bilan tanishish imkoniyatlari
 (Koreys ovqat mahsulotlarini tayyorlash, qandolatchilik, novvoyxona va boshqalar)

- ① Ariza beruvchilar har qanday kamchiliklar, jumladan, ariza hujjatlarining yo'qligi, hujjatlarni noto'g'ri to'ldirish, so'ralgan ma'lumotlarning yo'qligi, o'qilmaganligi va boshqa muammolar tufayli ariza qabul qilinmasligiga o'zlari javob beradilar.
- ② Barcha ariza beruvchilar asl ariza hujjatlarini belgilangan muddat ichida topshirishlari kerak.
- ③ Qabul qilinganlik to'g'risidagi hujjat suhbatdan o'tgan, qabul qilingandan so'ng o'qish to'lovini to'liq to'laganlarga beriladi.
- ④ Qabul jarayonida suhbatga chaqirilgan lekin javob bermagan yoki suhbatdan o'ta olmaganlar qabul qilinmaydi.
- ⑤ Arizani bir necha bor to'ldirganlar va boshqa o'quv yurtiga kirganlarning ro'yxatga olinishi taqiqlanadi. Bir yoki undan ortiq kollej yoki universitetga qabul qilingan abituriyentlar faqat bitta kollej yoki universitetga kirishlari kerak. Agar ushbu qoida buzilgan bo'lsa, barcha kollej yoki universitetlarga qabul bekor qilinishi mumkin.
- ⑥ Tekshiruv davrida ariza beruvchiga tegishli bildirishnomalar, suhbat jadvallari va saralab olingan ariza beruvchilarga alohida xabar beriladi. Ariza to'lovlari va taqdim etilgan hujjatlar qaytarilmaydi.
- ⑦ Kirish imtihonidan muvaffaqiyatli o'tgan va saralangan nomzod sifatida ro'yxatdan o'tgan talaba Koreyaga kirish vizasi rad etilgan bo'la turib turli g'ayriqonuniy yo'llar bilan kirsa, qabul bekor qilinadi. Talabani hujjatlarni qalbakiylashtirish yoki o'zgartirish kabi yolg'on yo'llar bilan kirish imtihonidan o'tganligi aniqlansa, talaba o'qishga qabul qilinmaydi.
- ⑧ Agar talaba semestrning birinchi kunigacha viza ololmasa yoki boshqa sabablarga ko'ra semestrning birinchi kunidan boshlab 14 kun ichida Koreyaga kira olmasa, qabul bekor qilinadi.
- ⑨ Kontraktning qaytarilishi
Agar siz ushbu universitetga o'qishga kirganingizdan so'ng ro'yxatdan o'tishni bekor qilmoqchi bo'lsangiz, ruxsatni olish uchun Xalqaro ta'lim markaziga "O'qishga kirishdan voz kechish to'g'risidagi arizani (bank hisob raqamingiz va ID kartangiz ilova qilingan holda)" yuborishingiz mumkin. Shunda to'lov universitet qoidalari asosida qaytariladi.

Seoyoung universiteti xalqaro ta'lim markazi

Telefon _ 82-62-520-5144 (Koreya vaqti bilan 9:00 dan 18:00 gacha)

Faks _ 82-62-520-5146

E-mail _ globalsy@seoyeong.ac.kr

Manzil _ Seoyoung universiteti xalqaro ta'lim markazi



1 Seogang-ro,
Buk-ku,
Gwangju
Metropolitan
shahri